

**O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIGA OID
ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA YOSHLARNING ISHTIROKI**

*Olimjonova Umida
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti
akademik litseyi o'quvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirilishi, O'zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi mustaqillik yillarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan madaniyat va san'at sohasidagi ko'rik tanlovlар minglab yosh iste'dod egalarini kashf etayotgan "Sog'lom avlod yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod" davlat dasturlari ijrosi doirasida O'zbekiston va xalqaro miqyosda muhim ahamiyat kasb etgan tanlovlar, festivallar, forumlar hamda anjumanlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, ko'rik-tanlov, debyut, umumjahon, renessans, meros, qaror, farmon, hujjat, islohot.

O'zbekiston hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yosh avlodning tarbiyasi masalasiga zamonaviy yondashishni taqozo etmoqda. Shuningdek, madaniyat va sa'nat sohasidagi islohotlar uzviyligi ta'lim tarbiyaning o'zaro uyg'unligini hamda umuminsoniy, milliy urf-odat hamda qadryatlarga tayanishni ta'minlashga alohida e'tibor berilayotganligi muhimdir. Bu yo'sinda mamlakatimizda madaniyat va sa'natga e'tibor xalq va davlatni tezlik bilan tanitishda o'ziga xos sohadir. 1992-yil 28-avgustda O'zbekiston ijodkor yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Farmoni chiqdi. Natijada minglab iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvatlash, ularni iste'dodini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratildi. 1992-yil 27-aprelda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi faoliyati va tuzilishini takomillashtirish to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar xokimligining Viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va faoliyatini yaxshilash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. 1993-yil 14-aprelda Respublika Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi san'at, madaniyat oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talaba o'quvchilari hamda o'qituvchilari ishtirokida Istiqlol jilolari nomli yig'ma

konserti namoyish etildi. Bu konsertda yoshlar faollik bilan o'z iqtidorlarini namoyish etdilar. 1995 -yil dekabr oyidan boshlab mamlakatda O'zbekiston vatanim manim mavzusidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilingandan so'ng yuzlab yangi, mustaqillik davri qo'shiqlari yaratildi. 1996 -yil 22-avgustda O'zbekiston vatanim manim qo'shiq bayrami haqida maxsus Farmon qabul qilindi. Bu ko'rik-tanlov yoshlar madaniy-ma'naviy hayotida unutilmas voqeа bo'lib, ular tomonidan zo'r mammuniyat va ko'tarinki ruh bilan qo'llab-quvatlandi. Natijada O'zbekistonda musiqa va raqs san'atini rivojlantirish maqsadida O'zbeknavo gastrol-konsert birlashmasi va O'zbekraqs birlashmasi tashkil etildi. 1997-yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqidagi PF-1701-sonli Farmoni qabul qilindi va respublikada madaniyat, sa'nat sohasidagi yuksalish yanada yuqori pog'onalarga ko'tarildi. 1998 -yil O'zbekistonda birinchi marta simfonik musiqa festivali o'tkazildi va dunyoning yigirmaga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar qatnashdi. Sharq xalqlari milliy musiqa va qo'shiq san'atining betakror namunalarini keng ko'lamda targ'ib qilish, milliy musiqiy an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish, yosh avlod ongida san'atga muhabbat, go'zallikni kuylash, asl insoniy qadriyatlar hissasini shakllantirish, shuningdek, xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlikni mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'rifiy munosabatlar ko'lамини dunyo darajasida kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи 132-sonli qaroriga muvofiq, Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali ta'sis etildi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur festival har ikki yilda bir marta Samarqand shahrida o'tkaziladi. An'anaviy Sharq taronalari musiqa festivali besh qit'a sa'nat vakillarini diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Mustaqillik yillarida zamonaviy o'zbek san'ati dunyo miqqiyosida yanada ulkan obro' va e'tibor topmoqda. Bunda iqtidorli yoshlarning xizmatlari salmoqlidir. Iste'dodli ijodkor yoshlarni qo'llab-quvatlash O'zbekistonda davlat siyosatiga aylangani muhim o'rinda turibdi. O'zbekistonda musiqa, tasviriy monumental va amaliy san'at sohalarida ham katta muvaffaqiyatlarga erishilgani tasodifiy emas. Milliy raqs xareografiya san'atini rivojlantirishga ham e'tibor kuchaydi. Bu san'at turlari chet elda keng e'tirof etilgan. G'arb kabi musiqa va teatr festivallari, tasviriy san'at asarlari ko'rgazmalari —Sharq taronalari, Simfonik musiqa, Toshkent bahori, —Sharq va G'arb kabi musiqa va teatr festivallari, tasviriy san'at asarlari ko'rgazmalari hamda xalqaro ko'rik tanlaovlar, turli cholq'u va raqs tanlovlari, maqom oqshomlarida respublika yoshlari yuqori faxrli o'rirlarni egallab kelmoqdalar. Jumladan, Ziyoda Sharipova, Aziza Sodiqova, Aleksey Sultonov, Sevil Aliyeva, Stanislaf Yudenich, Irena Gulzarova, Dilfuza Matboboyeva, Gulnora Alimova, Fazliddin Xusanov, Sayyora G'ofurova, Lola Rasulova, Lola Rastanova, Nargiza Alimova, Vasiliya Umarova, Temur Yenikov, Bekzod Abdullayev, Malika

Sharipova, Rustam Abdullayev, Bekzod Abduraimov, Stanislaf Umarov, Yayra Matyoqubova, Komil Musayev, Anastasiya Yudenich, Suhrob Kenjayev, Dinara Shaxiddinova, Aziza Sodiqova, Sunnat Ibrohimov, Nodir Xoshimov, Atham Hamroyev, Oybek Ismoilov, Madina Talipova, Nurxon Ziyoxonova, Inomjon Mamajonov, Malika Qo'ziyeva, Feruza Erkaboyeva, Artur Nemchilov, Komiljon Boboyev, Nigora Mirsolihova, Laylo Berkinova, Anifa Artiqova, Zilola Sulaymonova, Akrom Murodov, kabi iqtidorli yosh bastakorlar, sozandalar, rassomlar va tasviriy san'at namoyondalari turli xalqaro tanlovlarda g'olib bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etishga doir takliflarni qo'llab quvatlash to'g'risida 1999-yil 10-iyunda PF-2326-sonli Farmon chiqardi. Buning natijasida yosh iqtidorli qizlarga fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat va san'at yo'nalishlarida davlat mukofoti berildi. 2000-yildan 2008-yilgacha 126 ta yosh iqtidorli fan yo'nalishlarida 20 nafar, ta'lim yo'nalishlarida 32 nafar, adbiyat yo'nalishida 28 nafar, san'at yo'nalishida 24 nafar, madaniyat yo'nalishida 22 nafari 2009-yildan 2022-yilgacha 227 nafar iqtidorli yosh qiz va ayollarimiz fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat va sa'nat sohalari bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi. Mazkur ko'rik-tanlov yosh qizlarning ma'naviy jihatdan yetuk va vatanparvar bo'lib tarbiyalanishlariga asos bo'lib, ularning iqtidorini namoyon etishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sa'nat sohasidagi qobilyatli yoshlarga taqdim etiladigan Respublika Nihol mukofoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 25-avgustdagagi 334-sonli Qaroriga asosan ta'sis etilgan. Tantanali taqdimot marosimi har yili musiqa konsert ko'rinishida o'tkaziladi. Yosh iste'dodlarni kashf etishda Prezident tashabbusi bilan ta'sis etilgan Nihol mukofotining o'rni va ahamiyati g'oyat katta. Jumladan, 2000-yilda san'atkorlardan Anna Guzairova, Izzatilla Ibrohimov, Abdulaziz Karimov, Dilshod Nazarov, Tohir Sodiqov, Dilfuza Rahimova, Sevara Nazarhanova, Nilufar Rahmatova, Feruza Mirzaydinova, Komila Xo'jayeva, Laylo Galiyeva, Gulshoda Abdiyeva kabilar Niholmmukofotini sovrindori bo'lgan bo'lsa, 2008 -yilda Gulmiraxon Abdulaxatova, Ilyos Arabov, Shavkat Ergashev, Azamat Muhammadjonov, Bekzod Abduraimov, Bunyod Saidov, Saida Saidbekova, Sirojiddin Fayziyev, Muhabbat Mehmonova, Rano Avazova, Sagdulla Badalov, Oybek Alimov, Nigora Ismoilova, Dilnoza Shermatova, Rashid Xodjasov, Ziyoda Qobilova kabi san'at namoyondalari tanlovdagi g'olib bo'ldi. 2015 yilda Nihol mukofoti sovrindori Sayyod Jo'rayev, Shahzodbek Sobirjonov, Shiraz Tursinboyev, Bekzod Bahromov, Farangiz Shamsiyeva, Dilmurod Sultonov, mumtoz qo'shiq yo'nalishi bo'yicha: Sayyod Jo'rayev, Bahodir Sayidov, Alisher Ahmedov, musiqa ijrochiligi bo'yicha: Shahzod Asatullayev, Dostonjon Mirzokarimov, opera ijrochiligi bo'yicha Zarnigorxon Umarova, Dildora Mirsodiqova, Iqboljon Rahmatov, Aminzoda Jumaniyozov, raqs san'ati yo'nalishi

bo'yicha Sehriyo Mirzayeva, 2022 -yilda Maxmut Abdulazizov, Og'abek Akromov, Nilufar Zokirjonova, Zlata Kryachkova, Muslimaxon Maxkamova, Dilshod Narzullayev, Islombek Nuriddinov, Kamron Rajabov, Nuri Samandarov, Dilbarxon Komiljonova, Fotima Narzullayeva, Janar Toryevalar mazkur mukofotga loyiq topilib taqdirlandilar. Bugun ularning safi ancha kengayib har yili ko'rik-tanlovnинг Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar Toshkent shahri bosqichlari yuqori saviyada, bayramona ruhda, qat'iy badiiy talab va mezonlar asosida o'tkazilayotgani, unda ishtirok etish istagidagi yoshlarning ko'pligi —Nihol mukofotining nufuzi oshib borayotganidan dalolat beradi. Jumladan, 2022 -yili tuman, shahar, viloyatlar va Qoraqolpog'iston Respublikasidagi saralash bosqichlarida o'n ming nafarga yaqin yosh yigit-qiz ishtirok etgani buning dalilidir. Demak, mustaqillik yillarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan madaniyat va san'at sohasidagi ko'rik tanlovlар minglab yosh iste'dod egalarini kashf etmoqda Sog'lom avlod yili, Yoshlar yili, Barkamol avlod davlat dasturlari ijrosi doirasida O'zbekiston va xalqaro miqyosda muhim ahamiyat kasb etgan tanlovlар, festivallar, forumlar hamda anjumanlar tashkil etildi. Bularning barchasi O'zbekistonda iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvatlash borasidagi ishlar ko'lami tobora kengayib borayotganidan dalolatdir. O'zbekistonda madaniyat, sa'nat, ilm-fan va sportni targ'ib etishda 2004 -yil mart oyida tashkil qilingan O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi alohida o'rinda turadi. Jamg'arma o'z oldiga ilm-fan, madaniyat va ta'limni rivojlantirishdek ezgu maqsadni qo'ygan nodavlat tashkiloti bo'lib, o'tgan yillar davomida mamlakat madaniy hayotida o'ziga xos voqeа bo'lgan bir qator yirik loyiha va dasturlarni amalga oshirdi. Jamg'arma turli ko'rgazmalar, teatr va kino festivallari, xalqaro anjumanlar tashkil etish orqali O'zbekiston madaniyati va sa'natini xalqaro maydonda e'tirof etilishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Jamg'arma tomonidan o'nlab loyhalar amalga oshirildi. Masalan, Yangi avlod bolalar ijodi festivali, Navqiron O'zbekiston an'anaviy va zamonaviy san'at festivali va tez fursatda keng jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Butun mamlakat miqyosida tashkil etilayotgan Kelajak ovozi megatanlovi esa O'zbekistonning minglab yoshlarini birlashtirmoqda. Madaniyat va san'atning turli yo'nalishlarida yosh iqtidor egalarini kashf etmoqda. Jamg'arma konsertlar, festivallar, ko'rgazmalar tashkil etish barobarida Rossiya, Yaponiya, Belgiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda o'ndan ortiq xalqaro loyhalarini amalga oshirdi. —O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi o'z faoliyatini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu maqsadda jamg'arma tomonidan 2004-yilda Toshkent shahri va viloyatlarda Bolalar ijodiyotlari markazlari tizimi tashkil etildi. Hozirgi kunda Toshkentda ikkita va Samarqandda bitta markaz to'laqonli faoliyat yuritmoqda. Ularda 2000 nafardan ortiq bolalar kompyuter saboqlari, aktyorlik mahorati, chizmachilik, kashtachilik, ashula, raqs, shaxmat singari turli yo'nalishlar

bo'yicha ta'lim oladi. Iqtidorli bolalarni izlab topish, bolalarning o'ziga xos qobilyati va iste'dodlarini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish, bolalarning madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni san'atga bo'lган mehrini oshirish, milliy san'at an'analari va yo'naliшlarini saqlab qolish, san'atning zamonaviy yo'naliшlarini rivojlantirish hamda yuqori saviyaga ko'tarish maqsadida 2004-yildan Fond Forum boshchiligidagi har yili —Yangi Avlod Bolalar ijodiyoti festivali o'tkazib kelinmoqda. Respublika bosqichiga joylardan 552 nafar bolalar saralangan bo'lib, shularning 102 nafari festival g'oliblari bo'lishdi. An'anaviy tarzda 2005-yildan beri har yili o'tkazib kelinayotgan —Kelajak ovozi Respublika ko'rik-tanlovida 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lган yoshlar ishtirok etishdi. Tanlovda 2005-yilda 3 mingga yaqin, 2006-yilda 10 mingga yaqin, 2007-yilda 32 mingga yaqin, 2008-yilda 54 mingga yaqin 2010 -yilda 71 mingga yaqin 2013 yilda 84 mingga yaqin yoshlar ishtirok etdi. Shuningdek, —Kelajak ovozi tanlovi doirasida taniqli ijod namoyondalarining maxsus madaniy-ma'rifiy tadbirlarini tkazish yuzasidan Xarakatning Namangan, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari bo'lim Kengashlari tomonidan —Tarix millat ma'naviyatining asosi, —Do'ppi tikdim, ipaklari tillodan ko'rik tanlovi, bundan tashqari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda joylarda madaniy-ma'rifiy chiqishlar bo'lib o'tdi. Ushbu abadiy kechalarda 6500 ga yaqin o'quvchi yoshlar faol qatnashdi. —Biz — O'zbekiston yoshlarimiz, 3 yo'naliш bo'yicha —Biz bir jamoamiz shiori ostida badiiy ko'rgazmalar tashkil qilindi. —Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, bugungi kunimizning xal qiluvchi kuchidir, —Shu aziz Vatan barchamizniki mavzularida yoshlar forumi o'tkazildi. Forumda 2000 nafar yoshlar ishtirok etdi. —Kelajak ovozi yoshlar tashabbuslari markazi Farg'ona viloyat vakillik bo'limi 300 nafardan oshiq faol yoshlarni birlashtirgan. Yettita yo'naliш bo'yicha anjumanlar, seminar-treninglar, ijtimoiy aktsiyalar o'tkazildi. Aktsiya doirasida —Bo'sh ish o'rinnari yarmarkasida 750 nafar yoshlar ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot, muassasalarga ishlash uchun yo'llanma oldi. Jamg'arma tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar ham amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2005-yildan buyon jamg'armaning ta'lim grantlari dasturi amalga oshirib kelinadi. 2006-yildan jamg'arma ta'lim loyihalariga Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar dasturi va Pedagogik grantlar dasturi ham qo'shildi. Bularning barchasi O'zbekistonda iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvatlash borasidagi ishlar ko'lami tobora kengayganligini, va yoshlarimizni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishlari, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashga va yuksak marralarga erishishga xizmat qilishi uchun shart-sharoit yaratiganligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO,,YHATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so_{zi}. – 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O_zbekiston davlatini birga quramiz. – T.: O_zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O_zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.:O_zbekiston, 2022.
4. Аброров М. Янгича фикрлаш ва миллий урф-одатлар. – Т.: Фан, 1990.
5. Jo_{rayev} N., Fayzullayev T. Mustaqil O_zbekiston tarixi. / O_zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. – Т.: G_{afur} G_{ulom}, 2009.
6. Topildiyev O. Yoshlar – kelajak bunyodkorlari. – Namangan, 2013.
7. Xotamov F. XXI asr istiqbolimiz timsollari. – Т.: O_zbekiston, 2001. 8. Nazarbekov O. Yuksak e'tibor va ehtirom bizga kuch, shijoat beradi // Xalq so_{zi} gazetasi. – Т., 2022.
8. https://kun.uz/uz/news/2022/12/24/prezident-va-nomdor-davlatstipendiyalari_goliblari-elon-qilindi.
9. To_{xtasinov} N. Yangi O'zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat // Yangi O_zbekiston. 2020.